



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING DEMOGRAFIK HOLATI

*Izoh: 2024-yil yanvar-sentabr hamda 2024-yil
1-oktabr holatiga ma'lumotlar dastlabki, qolgan
davrlar bo'yicha yakuniy ma'lumotlar
keltirilgan.*



QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING DOIMIY AHOLISI

2024-yil 1-oktabr holatiga, dastlabki ma’lumotlar

Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2024-yil 1-oktabr holatiga doimiy aholi soni **2 022,5** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **19,8** ming kishiga yoki **1,0 %** ga ko‘paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **987,0** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **48,8 %**), qishloq aholisi soni **1 035,5** ming kishi (**51,2 %**) ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

2 022,5 ming kishi

Tabiiy o‘shish

+23,1 ming kishi

Doimiy aholining yashash joyi bo‘yicha taqsimlanishi

Shahar

**48,8 %**

Qishloq

**51,2 %**Aholining tabiiy harakati
yanvar-sentabr

	kishi		o‘shish, kamayish (+,-)	har 1000 kishiga nisbatan promille	
	2023y.	2024y.		2023y.	2024y.
Tug‘ilganlar	32 263	31 018	-1 245	21,7	20,6
O‘lganlar	7 837	7 871	34	5,3	5,2
Tabiiy o‘shish	24 426	23 147	-1 279	16,4	15,4
Nikohlar	9 636	9 456	-180	6,5	6,3
Ajralishlar	1 552	1 346	-206	1,0	0,9

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha asosiy demografik ko‘rsatkichlar 2024-yil yanvar-sentabr




shundan: xorijdan ko‘chib kelganlar – **148** kishi

shundan: Ko‘chib ketganlar xorijga – **3 350** kishi

Yosh guruhlari bo‘yicha aholi soni


2024-yil 1-oktabr holatiga



2024-yil 1-oktabr holatiga ko‘ra, respublika doimiy aholisi sonining **31,9 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **58,9 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **9,2 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Yosh guruhlari va jinsi bo‘yicha aholi tarkibi


2024-yil 1-yanvar holatiga



2024-yil 1-yanvar holatiga Qoraqalpog‘iston Respublikasining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo‘yicha (65 yoshgacha bo‘lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo‘lgan bolalar eng yuqori ko‘rsatkichni, ya’ni **104,2 ming kishini** tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to‘g‘ri kelib **33,2 ming kishini** tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 0-4 yoshli bo‘lgan qizlar eng yuqori ko‘rsatkichni, ya’ni **97,8 ming kishini** tashkil etgan bo‘lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to‘g‘ri kelgan, ya’ni **38,4 ming kishini** tashkil etgan.

Tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi

2024-yil 1-yanvar holatiga



2024-yilning 1-yanvar holatiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi aholisining kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi **72,7** yoshni tashkil etgan. Erkaklar uchun **70,5** yoshga, ayollar uchun esa **75,0** yoshga teng. Shahar joylar uchun kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi **69,7** yoshni, qishloq joylar uchun **75,9** yoshni tashkil etgan.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2024-yil 1-oktabr holatiga

Erkaklar



50,2 %

1 016,2 ming kishi

Ayollar



49,8 %

1 006,3 ming kishi

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha doimiy aholi soni

(1-oktabr holatiga, ming kishi)

	2023-yil	2024-yil	O‘sinh sur‘ati, % da
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1 994,2	2 022,5	101,4
Nukus shahri	337,6	343,5	101,7
tumanlar:			
Amudaryo	211,1	214,7	101,7
Beruniy	204	207,9	101,9
Bo‘zator	21,9	21,8	99,5
Qorao‘zak	54,2	54,6	100,7
Kegeyli	74,6	75,2	100,8
Qo‘ng‘irot	135,5	136,9	101,0
Qonliko‘l	53,6	54,2	101,1
Mo‘ynoq	33,6	33,8	100,6
Nukus	53,5	54,7	102,2
Taxiatosh	76,6	77,2	100,8
Taxtako‘pir	38,8	38,9	100,3
To‘rtko‘l	227,6	231,5	101,7
Xo‘jayli	128,2	129,7	101,2
Chimboy	115,4	116,3	100,8
Shumanay	57,9	58,4	100,9
Ellikqal‘a	170,1	173,2	101,8

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha aholi zichligi

1-oktabr holatiga, 1 kv.km.ga to‘g‘ri keladigan aholi soni, kishi


	2023-yil	2024-yil
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	12,0	12,1
Nukus shahri	1 527,9	1 554,6
tumanlar:		
Amudaryo	206,7	210,2
Beruniy	51,6	52,6
Bo‘zatov	10,7	10,7
Qorao‘zak	9,2	9,3
Kegeyli	81,1	81,7
Qo‘ng‘irot	1,8	1,8
Qonliko‘l	72,0	72,8
Mo‘ynoq	0,9	0,9
Nukus	56,7	58,0
Taxiatosh	431,3	434,6
Taxtako‘pir	1,8	1,8
To‘rtko‘l	30,4	30,9
Xo‘jayli	232,7	235,4
Chimboy	80,1	80,8
Shumanay	74,0	74,6
Ellikqal‘a	31,4	32,0

Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2024-yil 1-oktabr holatiga 1 kvadrat kilometr ga o‘rtacha **12,1** kishi to‘g‘ri kelgan. Bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **0,1 ga** ortgan (2023-yil 1-oktabr holatiga 1 kv.km.ga **12,0** kishi).

Tumanlar bo‘yicha qaraydigan bo‘lsak, aholi zichligini eng yuqori ko‘rsatkichi Nukus shahrida 1 554,6 kishi, Taxiatosh tumanida 434,6 kishi, Xo‘jayli tumanida 235,4 kishi, Amudaryo tumanida 210,2 kishi, Kegeyli tumanida 81,7 kishini tashkil etgan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkichlar Qorao‘zak tumanida 9,3 kishi, Qo‘ng‘irot tumanida 1,8 kishi, Taxtako‘pir tumanida 1,8 kishi, Mo‘ynoq tumanida 0,9 kishini tashkil etgan.

QAYD ETILGAN TUG‘ILISHLAR

(yanvar-sentabr holatiga)



Shahar va tumanlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti

2024-yil yanvar-sentabr, kishi

	Tug‘ilganlar soni	koeffitsiyenti
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	31 018	20,6 %
Nukus shahri	5 166	20,2 %
tumanlar:		
Amudaryo	3 580	22,4 %
Beruniy	3 608	23,3 %
Bo‘zatov	273	16,7 %
Qorao‘zak	731	17,9 %
Kegeyli	1 109	19,7 %
Qo‘ng‘irot	1 963	19,2 %
Qonliko‘l	827	20,5 %
Mo‘ynoq	482	19,1 %
Nukus	915	22,5 %
Taxiatosh	1 035	18,0 %
Taxtako‘pir	485	16,7 %
To‘rtko‘l	3 660	21,2 %
Xo‘jayli	1 982	20,5 %
Chimboy	1 699	19,6 %
Shumanay	688	15,8 %
Ellikqal‘a	2 815	21,8 %

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida **31,0** mingta kishi tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **20,6** promilleni tashkil etgan hamda 2023-yilning mos davriga nisbatan **1,1** promillega kamayganligi kuzatildi (2023-yilning yanvar-sentabr oylarida **21,7** promilleni tashkil etgan).

Tug‘ilganlarning taqsimlanishi

yanvar-mart

O‘g‘il bolalar

4 966

Qiz bolalar

4 517



52,4 %

47,6 %

yanvar-iyun

O‘g‘il bolalar

9 881

Qiz bolalar

9 088



52,1 %

47,9 %

yanvar-sentabr

O‘g‘il bolalar

16 222

Qiz bolalar

14 796



52,3 %

47,7 %



Tug‘ilishlarning chaqaloqlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2024-yil yanvar-sentabr



Chaqaloqlarning ota-onasi yoshi bo‘yicha taqsimlanishi

Otaning yoshi

Onaning yoshi

8,6 %
40 yosh va undan kattalar

78,3 %
25-39 yoshdagilar

13,1 %
25 yoshgacha



2,3 %
40 yosh va undan kattalar

65,9 %
25-39 yoshdagilar

31,8 %
25 yoshgacha


2024-yilning yanvar-sentabr oylarida tug‘ilgan chaqaloqlar otasining yoshi bo‘yicha: **13,1 %** chaqaloqlar otasining yoshi 25 yoshgacha, **78,3 %** ining otasi 25-39 yoshlarga hamda **8,6 %** chaqaloqlarning otasi 40 yosh va undan katta yoshdagilar hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Shuningdek, tug‘ilgan chaqaloqlar onasining yoshi bo‘yicha:

31,8 % chaqaloqlar onasining yoshi 25 yoshgacha, **65,9 %** ining onasi 25-39 yoshlarga hamda **2,3 %** chaqaloqlarning onasi 40 yosh va undan katta yoshdagilardan iborat bo‘lgan.


VAFOT ETGANLAR

(yanvar-sentabr holatiga)




Vafot etganlarning taqsimlanishi


yanvar-mart



yanvar-iyun



yanvar-sentabr




Shahar va tumanlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti

2024-yil yanvar-sentabr, kishi


	Vafot etganlar	koeffitsiyenti
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	7 871	5,2 ‰
Nukus shahri	1 298	5,1 ‰
tumanlar:		
Amudaryo	743	4,7 ‰
Beruniy	729	4,7 ‰
Bo‘zatov	98	6,0 ‰
Qorao‘zak	239	5,9 ‰
Kegeyli	349	6,2 ‰
Qo‘ng‘irot	595	5,8 ‰
Qonliko‘l	248	6,1 ‰
Mo‘ynoq	125	5,0 ‰
Nukus	247	6,1 ‰
Taxiatosh	293	5,1 ‰
Taxtako‘pir	157	5,4 ‰
To‘rtko‘l	887	5,1 ‰
Xo‘jayli	484	5,0 ‰
Chimboy	588	6,8 ‰
Shumanay	173	4,0 ‰
Ellikqal‘a	618	4,8 ‰

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida **7,9** mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga o‘lim koeffitsiyenti **5,2** promilleni tashkil etgan hamda 2023-yilning mos davriga nisbatan **0,1** promillega kamayganligi kuzatildi (2023-yilning yanvar-sentabr oylarida **5,3** promille bo‘lgan).



O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi


2024-yil yanvar-sentabr, kishi



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **52,8 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **9,3 %** i – o‘simtalardan, **6,6 %** i – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **6,5 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **2,8 %** i – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **0,4 %** i – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, **21,6 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.


O‘limning yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi

2024-yil yanvar-sentabr




2024-yilning yanvar-sentabr oylarida vafot etganlar yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanganda 20 yoshgacha vafot etganlar **19,9 %** ni, 20-59 yoshlar orasida **24,9 %** ni, 60 va undan katta yoshlilarda esa **55,2 %** ni tashkil etgan.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR (yanvar-sentabr holatiga)



Nikohlarning taqsimlanishi


yanvar- mart




Shahar va tumanlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti 2024-yil yanvar-sentabr, birlik

	nikohlar	koeffitsiyenti
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	9 456	6,3 ‰
Nukus shahri	1 758	6,9 ‰
tumanlar:		
Amudaryo	1 057	6,6 ‰
Beruniy	1 068	6,9 ‰
Bo‘zatov	103	6,3 ‰
Qorao‘zak	210	5,1 ‰
Kegeyli	373	6,6 ‰
Qo‘ng‘irot	617	6,0 ‰
Qonliko‘l	250	6,2 ‰
Mo‘ynoq	121	4,8 ‰
Nukus	272	6,7 ‰
Taxiatosh	301	5,2 ‰
Taxtako‘pir	155	5,3 ‰
To‘rtko‘l	1 048	6,1 ‰
Xo‘jayli	554	5,7 ‰
Chimboy	493	5,7 ‰
Shumanay	221	5,1 ‰
Ellikqal‘a	855	6,6 ‰

yanvar- iyun




yanvar- sentabr



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida **9,5** mingta nikoh qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **6,3** promilleni tashkil etgan hamda 2023-yilning mos davriga nisbatan **0,2** promillega kamayganligi kuzatildi (2023-yilning yanvar-sentabr oylarida **6,5** promille bo‘lgan).

NIKOHDAN AJRALISHLAR

(yanvar-sentabr holatiga)



Nikohdan ajralishlarning taqsimlanishi

yanvar- mart



Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2024-yil yanvar-sentabr, birlik

	nikohdan ajralishlar	koeffitsiyenti
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1 346	0,9 ‰
Nukus shahri	251	1,0 ‰
tumanlar:		
Amudaryo	143	0,9 ‰
Beruniy	110	0,7 ‰
Bo‘zatov	12	0,7 ‰
Qorao‘zak	41	1,0 ‰
Kegeyli	47	0,8 ‰
Qo‘ng‘irot	115	1,1 ‰
Qonliqo‘l	32	0,8 ‰
Mo‘ynoq	13	0,5 ‰
Nukus	35	0,9 ‰
Taxiatosh	36	0,6 ‰
Taxtako‘pir	20	0,7 ‰
To‘rtko‘l	167	1,0 ‰
Xo‘jayli	91	0,9 ‰
Chimboy	81	0,9 ‰
Shumanay	40	0,9 ‰
Ellikqal‘a	112	0,9 ‰

yanvar- iyun




yanvar- sentabr



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida **1,3** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **0,9** promilleni tashkil etgan hamda 2023-yilning mos davriga nisbatan **0,1** promillega kamayganligi kuzatildi (2023-yilning yanvar-sentabr oylarida **1,0** promille bo‘lgan).

Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2024-yil yanvar-sentabr



Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida jami nikohdan ajrashganlarning **33,1** % i farzandsiz, **36,1** % i bitta farzand bilan va **30,8** % i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Nikohdan ajrashganlar soni va koeffitsiyenti



Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha nikohdan ajrashganlarning 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida **1 346** kishini, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **0,9** promilleni tashkil etgan.

AHOLI MIGRATSIYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar)

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar soni jami 8 252 kishini tashkil etdi.


Doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlar soni jami 11 570 kishini, migratsiya saldosi minus 3 318 kishini tashkil etdi. (2023-yilning yanvar-sentabr oylarida minus 6 435 kishini tashkil etgan).

Shahar va tumanlar bo‘yicha ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni

(kishi)

	2023-yil yanvar-sentabr			2024-yil yanvar-sentabr		
	Ko‘chib kelganlar	Ko‘chib ketganlar	Migratsiya saldosi	Ko‘chib kelganlar	Ko‘chib ketganlar	Migratsiya saldosi
Nukus shahri	2118	2904	-786	3170	2677	493
tumanlar:						
Amudaryo	231	666	-435	433	665	-232
Beruniy	237	541	-304	299	415	-116
Bo‘zatov	86	297	-211	76	291	-215
Qorao‘zak	158	430	-272	209	471	-262
Kegeyli	282	635	-353	322	663	-341
Qo‘ng‘irot	356	1043	-687	336	807	-471
Qonliko‘l	196	382	-186	206	363	-157
Mo‘ynoq	146	328	-182	115	335	-220
Nukus	550	673	-123	736	624	112
Taxiatosh	295	696	-401	258	567	-309
Taxtako‘pir	148	615	-467	119	439	-320
To‘rtko‘l	336	485	-149	409	501	-92
Xo‘jayli	505	1203	-698	569	990	-421
Chimboy	359	1051	-692	357	910	-553
Shumanay	207	407	-200	237	381	-144
Ellikqal‘a	263	552	-289	401	471	-70

JAMI KO‘CHIB KELGANLAR (yanvar-sentabr holatiga)



— Ko'chib kelganlar, ming kishi — O'sish sur'ati, % da

Ko‘chib kelganlarning taqsimlanishi

yanvar-mart

Erkaklar

964

Ayollar

1 601



37,6%

62,4%

Shahar va tumanlar bo‘yicha ko‘chib kelganlar soni 2024-yil yanvar-sentabr, kishi

	Ko‘chib kelganlar	shundan:	
		Respublika boshqa hududlaridan	Xorijiy mamlakatlardan
Nukus sh. tumanlar:	3 170	3 151	19
Amudaryo	433	426	7
Beruniy	299	299	0
Bo‘zatov	76	72	4
Qorao‘zak	209	209	0
Kegeyli	322	315	7
Qo‘ng‘irot	336	313	23
Qonliko‘l	206	205	1
Mo‘ynoq	115	109	6
Nukus	736	725	11
Taxiatosh	258	246	12
Taxtako‘pir	119	107	12
To‘rtko‘l	409	400	9
Xo‘jayli	569	543	26
Chimboy	357	357	0
Shumanay	237	226	11
Ellikqal‘a	401	401	0

yanvar-iyun

Erkaklar

2 072

Ayollar

3 336



38,3%

61,7%

yanvar-sentabr

Erkaklar

3 120


Ayollar

5 132



37,8%


62,2%



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida **8,3** mingta ko‘chib kelganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga ko‘chib kelish koeffitsiyenti **5,5** promilleni tashkil etgan hamda 2023-yilning mos davriga nisbatan **1,1** promillega ko‘payganligi kuzatildi (2023-yilning yanvar-sentabr oylarida **4,4** promille bo‘lgan).

JAMI KO‘CHIB KETGANLAR

(yanvar-sentabr holatiga)



Ko‘chib ketganlarning taasislanishi

yanvar-mart

Erkaklar

1 584

Ayollar

2 098



43,0 %

57,0 %

Shahar va tumanlar bo‘yicha ko‘chib ketganlar soni

2024-yil yanvar-sentabr, kishi

	Ko‘chib ketganlar	shundan:	
		Respublika ning boshqa hududlariga	Xorijiy mamlakatlarga
Nukus sh. tumanlar:	2677	1872	805
Amudaryo	665	531	134
Beruniy	415	288	127
Bo‘zatov	291	226	65
Qorao‘zak	471	390	81
Kegeyli	663	568	95
Qo‘ng‘irot	807	389	418
Qonliko‘l	363	326	37
Mo‘ynoq	335	227	108
Nukus	624	514	110
Taxiatosh	567	332	235
Taxtako‘pir	439	216	223
To‘rtko‘l	501	420	81
Xo‘jayli	990	495	495
Chimboy	910	729	181
Shumanay	381	328	53
Ellikqal‘a	471	369	102

yanvar-iyun

Erkaklar

3 044

Ayollar

4 182



42,1 %

57,9 %

yanvar-sentabr

Erkaklar

4 735

Ayollar

6 835



40,9 %


59,1 %



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida **11,6** mingta ko‘chib ketganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga ko‘chib ketish koeffitsiyenti **7,7** promilleni tashkil etgan hamda 2023-yilning mos davriga nisbatan **1,0** promillega kamayganligi kuzatildi (2023-yilning yanvar-sentabr oylarida **8,7** promille bo‘lgan).

Xorijiy mamlakatlardan doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlarning davlatlar bo‘yicha taqsimlanishi


2024-yil yanvar-sentabr



Qoraqalpog‘iston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan ko‘chib kelganlarning asosiy qismi Qozog‘iston Respublikasidan **125** kishi, Turkmaniston Respublikasidan **19** kishi va Rossiya Federatsiyasidan **4** kishi kelgan.

Xorijiy mamlakatlarga doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlarning davlatlar bo‘yicha taqsimlanishi

2024-yil yanvar-sentabr



Qoraqalpog‘iston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga ko‘chib ketganlarning asosiy qismi Qozog‘iston Respublikasiga **3 306** kishi, Rossiya Federatsiyasiga **22** kishi, Turkmaniston Respublikasiga **14** kishi va boshqa mamlakatlarga **8** kishi ketgan.

Demografik ko‘rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya‘ni me‘yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro‘yxatga olish ma‘lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug‘ilganlar va muayyan hududga ko‘chib kelganlar soni qo‘shilib, o‘lganlar va muayyan hududdan ko‘chib ketganlar soni ayriladi.

Tug‘ilish – tug‘ilish jarayonlarining sodir bo‘lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug‘ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o‘lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

O‘lim sabablari – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta‘sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya‘ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish



so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migratsion o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya, mehnat va gender
statistikasi bo‘limi
Tel: 61 222-76-57